



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI**  
**UCHQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

2021 - yil 25 - noyabr

406-6-87-Q/21

Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

**Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PF-5666-son va 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 31 dekabrda 343-son, 2014 yil 6 oktabrdagi 279-son va 2019 yil 15 maydagi 404-son qarori talablari asosida, Hududiy tanlov komissiyasining 2021 yil 8 noyabrdagi 6-son yig‘ilish qarori, Namangan viloyati davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasining 2021 yil 9 noyabrdagi 01-03/2531-sonli xati hamda viloyat hokimining 2021 yil 23 noyabrdagi 372-6-0-Q/21-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Hududiy tanlov komissiyasining 2021 yil 8 noyabrdagi 6-son yig‘ilish qarori hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyati hududiy boshqarmasining 2021 yil 9 noyabrdagi 01-03/2531-sonli xati hamda viloyat hokimining 2021 yil 23 noyabrdagi 372-6-0-Q/21-sonli qarori ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

baholangan qiymatida “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasi orqali xususiylashtiriladigan davlat mulki obyektlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

baholangan qiymatida sotiladigan davlat mulki obyekti ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (B.Matmusaev)ga:

ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini “E-AUKSION” elektron savdo platformasiga baholangan harid qiymatida kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-son Farmoni 1-bandi to‘rtinchi hatboshisi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 6 oktabrdagi 279-son qarori 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "Davlat ko‘chmas mulk ob‘ektlarini sotish tartibi to‘g‘risida"gi nizomning 29<sup>1</sup>-29<sup>2</sup>-bandlari talablaridan kelib chiqib, 2-ilovada ko‘rsatilgan davlat mulki obyektini baholangan qiymatda obyekt ijarachisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish yuzasidan taklif etish, bunda obyekt ijarachisi tomonidan sotib olishni rad etgan yoki hududiy boshqarmaning taklifiga bir oy muddatda javob bermagan (munosabat bildirmagan) taqdirda, ushbu obyektini baholangan qiymatda “E-AUKSION” elektron savdo platformasiga kiritish chorasini ko‘rish;

xususiylashtirish jarayonlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2014 yil 6 oktabrdagi 279-son qarori talablariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirish vazifasi yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman “Yorqin hayot” gazetasi tahririyatiga ushbu qarorda keltirilgan davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumot va e’lonlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.To‘lamirzayev zimmasiga yuklansin.

Туман ҳоқими



А.Ваҳобов